

**AMIR TEMURNING HINDISTONGA YURISHI.**

**Qo‘chqorov Sobirjon Ahadjonovich**

*FaDU Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘ining*

*Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rnbosari.*

**Qodirov Samandar Bobir o‘g‘li**

*Farg’ona Davlat Universiteti Harbiy ta’lim fakulteti 1-kurs*

*23.119-guruh kursanti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Amir Temurning Hindistonga yurish sabablari haqida qisqacha yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mahoratli sarkarda, Dehli sultonligi, quriltoy, Mo‘lton shahri, Ind daryosi, Batnir qal’asi, Luni qal’asi, Yamuna (jama) daryosi, xandaqlar, jangovor fillar, manglay, barong’or, juvong’or, otliq qo’shinlar, chora tadbirlar, temir tig’lar, Sulton Mahmud.

Iste’dodli buyuk sarkarda Amir Temur harbiy san’atda mahoratli ekanligi aynan Hindistonga bo’lgan yurishida yaqqol namoyon bo’ladi.

Amir Temurning 1392-1396-yillardagi besh yillik urushining so’ngi yillarida Oltin O’rdani butkul bosib oldi. Bu esa Sohibqironning Kavkazdan to Fors ko’rfazigacha bo’lgan hududlarni o’z hududiy doirasiga qo’shib olish bilan yakunlandi.

1396-yili Amir Temur Samarqandga qaytadi va Hindistonga yurishini rejalahtiradi. Garchi Dehli sultonligi ichki ziddiyatlar tufayli zaiflashib Amir Temurning davlatiga havf solmasada, Sohibqiron bu o’lkada Islom dinini yoyish, boyliklarga ega bo’lish, o’z hududiy doirasiga qo’shib olish maqsadida edi. 1397-yilda quriltoy o’tkazilib Hindistonga yurish rejalarini e’lon qilindi. Sohibqiron Hindistonga yurish uchun jami 92 ming qo’shin to’pladi.

1397-yil kuzida Amir Temur nabirasi Pirmuhammadni 30 ming qo’shin bilan Hind sultonliklariga bo’ysunmasdan ajralib chiqgan Hind kinyazliklarini bosib olish uchun yuboradi. Pirmuhammad Mo‘lton shaxrini egallashi kerak edi. Mo‘lton Hindistonga hujum qilish uchun yaxshi pozitsiya bo’lib hizmat qilar edi. Amir Temur qishni Movaraunnahr shimalida o’tkazdi. 1398-yilning ilk oylari Temur Samarqanddan qaytdi. Samarqanddan 62 ming qo’shin bilan yo’lga chiqgan sarkarda 30 ming otliq qo’shinni Qobulga yo’naltirdi, qo’shin Ind daryosini kechib o’tib Laxorni egallashi kerak edi. Qolgan 32 ming qo’shinga sarkardaning shaxsan o’zi boshchilik qiladi, Amudaryodan kechib o’tib Balgan Hindikush tog’ tizmasi tomonga harakatlanadi. Ushbu harakatdan asosiy maqsad Sohibqiron Hindikushdan oshib o’tib, Kofiriston (Afg’onistonni markazi) shaxriga to’satdan hujum qilib g’aflatda qoldirish edi. Bu yurishni muvaffaqqiyatlari oxiriga yetkazgan Amir Temur Qobulga kirib keldi, bu yerdan Ind daryosiga yo’naldi.

1398- yil 24-sentabrda Sohibqironning qo’shini Ind daryosidan o’tdi. Bu vaqtida Pirmuhammad Mo‘ltonni qamal qilib turgan edi. Mo‘ltonni egallash oson kechmadi. Ob-havoning og’ir sharoitida yomg’ir sellar natijasida havosovub otlar orasida yuqumli kasalliklar tarqab, otlarning yarmidan ko’pi qirildi. Vanihoyat Amir Temurning yordamini bilan Pirmuhammad Mo‘ltonni egallaydi. So’ng Temurning nigohini Batnir qal’asiga qaratdi.

Batnir qal'asi mustaxkam bo'lganligi sababli ko'p vaqt yo'qotishni va talofatlar ko'rishni hoxlamagan Sohibqiron 10 ming qo'shin bilan Batnir qal'asi yaqinidagi Dibalpur qishlog'iga bosqing uyuştiradi va shaxarni olov ichida qoldirdi. Aholi Batnir qal'asidan boshpana so'rab qal'a darvozasi oldiga keldilar, aholi qal'aga kirish paytida Sohibqiron va uning jangchilari uchun qulay fursat edi. Ushbu imkoniyatdan unumli foydalandi qal'aning birinchi marralarini egalladi. Qal'adagi asosiy kuch ichki qal'aga chekindi. Amir Temur ichki qal'ani ishg'ol qilish uchun yer osti yo'li qura boshladilar va bu reja 1398-yil 8-noyabrda Batnir himoyachilari Sohibqiron jangchilariga asirga tushish bilan yakunlandi.

Shu yilning 8-dekabrida Sohibqiron qo'shini Diloburda ajrashgan qo'shin bilan so'ngra 12-dekabrda barcha qo'shin bilan birlashdi. Sohibqiron endi asosiy va notanosh bo'lgan kuch bilan to'qnashish uchun qo'shinni Somin shaxridan Dehligacha uch kalonna bo'lib harakatlandi. Dehli sultanati yaqinidagi Luni qal'asini egallaydi shu yerdan so'ngi janga tayyorgarlik ko'radi. 15-dekabrda eas Dehlini qaysi usul va vositalar orqali qamal qilishni kelishib ilish uchun kengash chaqirtirildi.

Amir Temur Luni shaxridan sharqqa tomon harakatlanib Dehli yaqinida lager qurdi, Lagerni Hindlarning to'satdan hujumlarini qaytarish chora tadbirlarini ko'rdi, xandaqlar qazildi, to'siqlar o'rnatildi. Bu paytda Dehli sultonı Mahmudshox tezlik bilan qo'shin yig'ib turgan edi.

1398-yil 18-dekabrda Sulton Mahmud va Amir Temur o'z qo'shinlarini jangovor tartibda safladilar.

Sulton Mahmudning 10ming yaxshi qurollangan otlig'larga, 40 ming piyodalarga, 120 ta jangovor fillarga ega edi. Sulton Mahmud o'z qo'shinini quidagi jangovor tartibda saflaydi, Qo'l(markaz), Barong'or (o'ng qanot), Juvong'or (chap qanot) shaklida saflaydi. Ushbu bo'linmalar oldida esa kamon o'qlari, nayzalar, qilichlar zarbalaridan qalin to'qimlar bilan himoyalangan tishlariga zahar surkalan pichoqlar bog'langan jangovor fillar, ularning ustida kamon va nayzalar bilan qurollangan jangchilar joylashishi uchun minorachalar o'rnatilgan atrofida esa yonuvchi aralashma solingan hummachalarni va temir uchli nayzalar otuvchi jangchilar bir qator qilib joylashtirilgan.

Amir Temur esa 92 ming otliq qo'shinni Manglay (bosh avangard) Barong'or (o'ng qanot) ikki chiziqda Juvong'or (chap qanot) ikki chiziqda Qo'l (markazdan) iborat edi.

Sulton Mahmud son jihatdan kam bo'lsada u jangovor fillarining harakati jang taqdirini o'z hisobiga hal qilishiga ishonar edi.

Amir Temur jangovor fillarni oldida jangchilarni oshib ketgan tashvishini bilib oldindan quidagi chora tadbirlarni ko'rdi: chuqur handaqlar qazildi, ichi temir tig'lari bilan to'ldirildi, temir tig'lar o'rnatilgan taxtalar tayyorlanib, ularni jang paytida jangovor fillar oyoqlari ostiga tashlashni buyurdi. Jangovor fillarni qo'rqtish ular orasida parokandalikni keltirib chiqarish uchun tuyalar ustiga tez alanga oluvchi shx-shabbalar somon bog'lamlari bog'lanib yoqib yuborildi va jangovor fillar tomon yo'naltirildi. Olovdan qochib yugurayotgan tuyalardan sarosimaga tushgan jangovor fillar qutirib ortiga chekina boshladidi o'z qo'shinini oyog'lari ostida qoldirdi, ayrimlari qochib ketdi.

Sohibqiron g'anim jangchilariga kamon o'qlari, nayzalar bilan talofat yetkazish qilichlari bilan fillarni hartumlarini chopib tashlashga buyurdi. Bu chora -tadbirlarni muvaffaqiyatlil amalga oshgani jangchilarda botirlilik hixlatini yanada uyg'otdi.

Jang qo'shinlaning qanotlaridan boshlandi, Temurning birinchi chiziq qanotlari g'animning piyodalardan tashkil topgan qanotlariga kamondan o'qlar yog'dirdi .Qarshi xujumga uchramasligi uchun chekinib qayta hujumga o'tdilar .Amir Temurning Manglay bo'linmasi Sultonning qo'l qismining chap qanotidan zarbalar bera boshladi. Dushmanni ta'qib etish Dehli devorlarigacha davom etdi.Ikkinci tunda Mahmudshox shaxardan qochdi. Dehli jangsiz taslim bo'ldi.

Buyuk sarkarda Amir Temur Hind o'lkasini bosib olgandan so'ng Dehlidan juda katta boyliklar bilan ,keyinchalik harbiy yurishlarida foydalanish uchun 90 ta jangovor fillar bilan Samarqandga qaytadi. Bu o'lkada o'z noibini qoldirgan Sohibqiron Islom dinini yoyishga katta hissa qo'shadi .

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. X.Sodiqov-“ Amir Temur sultanatida havsizlik xizmati”
2. Muhammad Ali -“ Amir Temur solnomasi”
3. “Temur tuzuklari”
4. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumixarbiy nizomlari. Toshkent 1996 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yilgi, 170- sonli qarori. Toshkent-2004 yil.